XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-fevral VII-5-30-7-100-K/25 Payariq tumani

Payariq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 12-dekabrdagi 150-7-100-F/24-sonli farmoyishiga asosan Respublika Aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Samarqand viloyati Payariq tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra umumiy perimetri **1 030 515** metr, umumiy maydoni **130 986,40** gektar ekanligi aniqlandi. Tumandagi shahar, shaharcha va qishloqlarning umumiy uzunligi va umumiy maydonlari quyidagilardan iborat.

Jumladan:

Payariq shahrining umumiy perimetri 14568 metr, umumiy maydoni 442,36 gektar;

Chelak shahrining umumiy perimetri 21157 metr, umumiy maydoni 782,01 gektar;

Do‘stlarobod shaharchasining umumiy perimetri 5575 metr, umumiy maydoni 91,78 gektar;

Qorasuv shaharchasining umumiy perimetri 21013 metr, umumiy maydoni 280,40 gektar;

Oqqo‘rg‘on shaharchasining umumiy perimetri 9766 metr, umumiy maydoni 234,79 gektar;

Tomoyrot shaharchasining umumiy perimetri 18910 metr, umumiy maydoni 334,44 gektar;

To‘polos shaharchasining umumiy perimetri 22418 metr, umumiy maydoni 285,42 gektar;

Xo‘ja Ismoil shaharchasining umumiy perimetri 15732 metr, umumiy maydoni 386,13 gektar;

Ko‘ksaroy shaharchasining umumiy perimetri 6409 metr, umumiy maydoni 133,08 gektar;

G‘ujumsoy shaharchasining umumiy perimetri 8176 metr, umumiy maydoni 137,11 gektar;

Shodlik shaharchasining umumiy perimetri 9750 metr, umumiy maydoni 226,01 gektar;

Ko‘lto‘sin qishlog‘ining umumiy perimetri 165862 metr, umumiy maydoni 41902,71 gektar;

Oytamg‘ali qishlog‘ining umumiy perimetri 81589 metr, umumiy maydoni 11747,03 gektar;

Oqqo‘rg‘on qishlog‘ining umumiy perimetri 78617 metr, umumiy maydoni 5242,45 gektar;

Sanoat qishlog‘ining umumiy perimetri 48804 metr, umumiy maydoni 5629,04 gektar;

Choshtepa qishlog‘ining umumiy perimetri 36473 metr, umumiy maydoni 3704,45 gektar;

Qorasuv qishlog‘ining umumiy perimetri 83739 metr, umumiy maydoni 5163,18 gektar;

Birlashgan qishlog‘ining umumiy perimetri 97677 metr, umumiy maydoni 6188,95 gektar;

Guliston qishlog‘ining umumiy perimetri 135383 metr, umumiy maydoni 28485,64 gektar;

Ko‘kdala qishlog‘ining umumiy perimetri 53213 metr, umumiy maydoni 8586,99 gektar;

O‘rtasaydov qishlog‘ining umumiy perimetri 56561 metr, umumiy maydoni 7648,07 gektar;

Choporoshli qishlog‘ining umumiy perimetri 39123 metr, umumiy maydoni 3354,36 gektar;

Payariq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahrlar, shaharchalar va har bir qishloqlarning chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi.

Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Payariq tumanidagi shaharcha va qishloqlarning, shuningdek tumanga bo‘ysunuvchi Payariq va Chelak shaharlari chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Payariq tumanida ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2025-yil 20-fevraldagi №1-06-17-sonli yig‘ilish bayonini muhokama qilib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining VII chaqiriq, beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo bo‘linmasi tomonidan Payariq tumanidagi shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan Payariq tumanida

ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, hudud(massiv)lar kesimida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda natijalari asosida elektron raqamli qishloq xo‘jalik xaritalarini yangilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan tuman ishchi guruhning 2025-yil 20-fevraldagi №1-06-17-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- Payariq tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga;

- ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizma 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati rahbari (S. Nishonov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari (A.Maxammatov, S.Maxkamov, M.Nurmanova, B.Shakarov)lar hamda tuman hokimining o‘rinbosari (M.Alibekov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi

DJABBOROV ISROIL ISMOILOVICH

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-5-30-7-100-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Payariq tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklarining chegaralarini belgilash to‘g‘risida

M A’ L U M O T

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomlari	Umumiy perimetri (metr)	Umumiy yer maydoni (gektar)
1	Payariq shahri	14568	442,36
2	Chelak shahri	21157	782,01
3	Do'stlarobod shaharchasi	5575	91,78
4	Qorasuv shaharchasi	21013	280,40
5	Oqqo'rg'on shaharchasi	9766	234,79
6	Tomoyrot shaharchasi	18910	334,44
7	To'polos shaharchasi	22418	285,42
8	Xo'ja Ismoil shaharchasi	15732	386,13
9	Ko'ksaroy shaharchasi	6409	133,08
10	G'ujumsoy shaharchasi	8176	137,11
11	Shodlik shaharchasi	9750	226,01
12	Ko'lto'sin qishlog'i	165862	41902,71
13	Oytamg'ali qishlog'i	81589	11747,03
14	Oqqo'rg'on qishlog'i	78617	5242,45
15	Sanoat qishlog'i	48804	5629,04
16	Choshtepa qishlog'i	36473	3704,45
17	Qorasuv qishlog'i	83739	5163,18
18	Birlashgan qishlog'i	97677	6188,95
19	Guliston qishlog'i	135383	28485,64
20	Ko'kdala qishlog'i	53213	8586,99
21	O'rtasaydov qishlog'i	56561	7648,07
22	Choporoshli qishlog'i	39123	3354,36

	Jami	**1 030 515**	**130 986,40**

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2025-yil 28-fevraldagi
VII-5-30-7-100-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyati Payariq tumanining
ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining
SXEMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi:

A dan B gacha ***Jizzax viloyati yerlari***
B dan D gacha ***Jomboy tumani yerlari***
D dan E gacha ***Oqdaryo tumani yerlari***
E dan F gacha ***Ishtixon tumani yerlari***
F dan A gacha ***Qo'shrabot tumani yerlari***